

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.06/2025.27.12Tib.02.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

AMANOVA NARGIZA ABDURAZZOKOVNA

**OROLBO'YI MINTAQASIDA YASHOVCHI BOLALARDA INGICHKA ICHAK
KASALLIKLARINING KLINIK-FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI**

14.00.09 – Pediatriya

**Tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

ANDIJON – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Amanova Nargiza Abdurazzokovna

Orolbo'yi mintaqasida yashovchi bolalarda ingiichka ichak kasalliklarining klinik-funksional xususiyatlari..... 3

Аманова Наргиза Абдураззоковна

Клинико-функциональные особенности заболеваний тонкого кишечника у детей проживающих в регионе Приаралья 25

Amanova Nargiza Abdurazzokovna

Clinical and functional features of small intestine diseases in children living in the Aral sea region 47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 53

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.06/2025.27.12Tib.02.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

AMANOVA NARGIZA ABDURAZZOKOVNA

OROLBO'YI MINTAQASIDA YASHOVCHI BOLALARDA INGICHKA ICHAK
KASALLIKLARINING KLINIK-FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

14.00.09 – Pediatriya

Tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI

ANDIJON – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasida V2023.3.PhD/Tib3777 raqami bilan ro'yhatga olingan.

Dissertasiya Toshkent davlat tibbiyot universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.adti.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Alieva Nigora Rustamovna tibbiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Xakimov Sharobiddin Karimovich tibbiyot fanlari doktori, professor
	Umarnazarova Zulxumor Eyrnazarovna tibbiyot fanlari doktori, yetakchi ilmiy hodim
Etakchi tashkilot:	Tibbiyot xodimlarini kasbiy malakasini rivojlantirish markazi

Dissertasiya himoyasi Andijon davlat tibbiyot instituti huzuridagi DSc.06/2025.27.12Tib.02.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «___»_____soat___dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 170100, Andijon sh, Y. Otabekov ko'chasi, 1-uy. Tel/faks: (+99874) 223-94-60; e-mail: info@adti.uz).

Dissertasiya bilan Andijon davlat tibbiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____raqami bilan ro'yhatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon sh, Y. Otabekov ko'chasi, 1-uy. Tel/faks: (+99874) 223-94-60.)

Dissertasiya avtoreferati 2026 yil «___» _____ kuni tarqatildi. (2026 yil «___» _____dagi _____-raqamli reestr bayonnomasi).

A. Sh. Arzikulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

Sh. O. Toshboev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

S. M. Shokirova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tibbiyot fanlari doktori, dot

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda oshqozon-ichak traktining yuqumli bo'lmagan patologiyasi pediatriyaning yetakchi muammolaridan biri ekanligi aniqlangan, chunki bu kasalliklar bolalarda sezilarli darajada tarqalgan. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, Markaziy Osiyo mintaqasida ingichka ichak kasalliklari pediatriyaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ular orasida og'irlaridan biri va ko'pincha yomon oqibatlariga olib keladigan kasallik seliakiya (S) bo'lib, uning umumiy populyatsiyada tarqalishi 1% ni tashkil etadi. Surunkali enterokolit (SE) bilan sayyoramiz aholisining 12-34 foizi aziyat chekadi. Allergik enterokolitlar (AE) Yevropa qit'asi va Shimoliy Amerika mamlakatlarida 12% bolalarda uchraydi¹. O'zbekiston olimlarining ma'lumotlariga ko'ra, respublika hududlarida allergik enterokolitlarning uchrash darajasi 21,7 dan 34,2% gachani tashkil etadi. Shu munosabat bilan ekologik noqulay sharoitda yashovchi bolalarda ingichka ichak kasalliklarining klinik-immunologik xususiyatlarini o'rganish hamda bunday bolalarda davolash usullarini takomillashtirish nazariy va amaliy ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Jahonda ekologik noqulay hududda yashovchi bolalarda uchraydigan ingichka ichak kasalliklarini klinik, immunologik va immunogenetik hususiyatlarini baxolashga, shuningdek davolash sxemalarini optimallashtirishga bag'ishlangan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jahon statistikasiga ko'ra, ingichka ichak kasalliklari ayniqsa ekologik noqulay hududda yashayotgan erta yoshdagi bolalarda og'ir klinik kechishi bilan ajralib turadi, bu esa hayot sifatini pasaytiradi va jiddiy tibbiy-ijtimoiy muammo hisoblanadi. Bularning barchasi samaradorlikni oshirish va kasallik prognozini yaxshilashga qaratilgan bemorlarni davolashga an'anaviy yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Bunday sharoitlarda bolalarda ichak shilliq qavatining immunologik barqarorligi pasayib, mahalliy va tizimli immun javobning buzilishi kuzatiladi. Ekologik omillar, xususan og'ir metallar, ifloslangan suv va oziq-ovqat mahsulotlari immun tizimning yetilishini sekinlashtiradi. Bu esa ingichka ichak kasalliklarining surunkali va qaytalanuvchi kechishiga olib keladi. Shuningdek, genetik moyillik va immunogenetik markerlar kasallikning individual kechishini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Klinik jihatdan bu bolalarda malabsorbsion sindrom, o'sishdan orqada qolish va umumiy intoksikatsiya belgilari ustunlik qiladi. Ushbu yondashuvlar kasallikning kechishini yengillashtirish va uzoq muddatli prognozni yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda aholining turli qatlamlarida, ayniqsa bolalar orasida, shu jumladan ingichka ichak kasalliklari bo'lgan bolalarning somatik kasalliklarni erta tashxislash va asoratlarini oldini olish bo'yicha keng qamrovli dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2017-2021-yillarda O'zbekiston

¹ <https://www.worldgastroenterology.org/guidelines/ceeliac-disease/ceeliac-disease>

Respublikasini Harakatlar strategiyasi bo'yicha² - "oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, bolalar va onalarga tibbiy yordam ko'rsatishni kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatish, chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish" vazifalari belgilab berilgan. Shu munosabat bilan aholiga tibbiy yordam ko'rsatishni yangi bosqichga ko'tarish, jumladan, Orolbo'yi mintaqasida yashovchi bolalarda ingichka ichak kasalliklari va ularning asoratlarini oldini olish choralari ko'rish keraak.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-noyabrdagi PQ-2650-son "O'zbekistonda 2016-2020-yillarda onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 7-fevraldagi PQ-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining beshta ustuvor yo'nalishi to'g'risida"gi, 2017-yil 20-iyundagi PQ-3071-son "O'zbekiston Respublikasi aholisiga 2017-2021-yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI "Tibbiyot va farmakologiya" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. So'nggi yillarda ingichka ichak kasalliklari, ayniqsa bolalarda uchraydigan malabsorbsion va yallig'lanishli ichak patologiyalari jahon tibbiyotida dolzarb ilmiy yo'nalish sifatida keng o'rganilmoqda. Pediatric Gastroenterology yo'nalishida olib borilgan tadqiqotlar ushbu kasalliklarning murakkab patogenezga ega ekanligini ko'rsatadi. Xususan, ichak mikrobiotasining o'zgarishi bolalarda malabsorbsion sindrom rivojlanishida muhim rol o'ynashini ta'kidlagan (Duggan et al., 2017). Zamonaviy konsepsiyalarga ko'ra, ichak mikrobiomining disbalansi immun tizimning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mikrobiota va organizm o'rtasidagi o'zaro munosabatlar buzilishi surunkali yallig'lanish jarayonlarini kuchaytirishi isbotlagan (Sonnenburg S., 2019; Gordon A., 2022). Bundan tashqari, ichak epitelial to'sig'ining "leaky gut" fenomeni orqali antigenlarning tizimli qon aylanishiga o'tishini kuchaytiradi va tadqiqotlarida epitelial o'tkazuvchanlik oshishi yallig'lanishli ichak kasalliklarining asosiy patogenetik mexanizmlaridan biri sifatida ko'rsatilgan (Turner D., 2009). Immunologik nuqtai nazardan, T-limfotsitlar va sitokinlar muvozanatining buzilishi kasallik og'irligini belgilaydi. Shuningdek, IL-6, TNF- α va IL-1 β kabi

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi "2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" 2017-yil 4-fevraldagi F-4849-son

proinflammator sitokinlarning yuqori darajasi kasallik faolligi bilan bevosita bog'liq ekanligi ko'plab klinik tadqiqotlarda tasdiqlangan. Genetik tadqiqotlar NOD2/CARD15, ATG16L1 kabi genlarning mutatsiyalari ichak yallig'lanish kasalliklariga moyillikni oshirishini ko'rsatadi (Jostins et al., 2018). Shuningdek, ekologik omillar, oziqlanishning buzilishi va infeksiyon yuklama kasallik rivojlanishida muhim qo'shimcha faktor sifatida baholanadi. Biroq bolalarda klinik-funksional o'zgarishlar va ularning hududiy xususiyatlari hali to'liq o'rganilmagan.

Jahonda yetakchi tibbiyot universitetlari va klinikalarida bolalarda ingichka ichak kasalliklarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. So'nggi yillarda Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik inqiroz keng hududlarga va mintaqada yashovchi aholi salomatligiga ta'sir ko'rsatdi. Eng katta o'zgarishlar bolalar salomatligi ko'rsatkichlarida sodir bo'ldi, ular organizmning himoya kuchlari yetilmaganligi sababli mintaqadagi noqulay ekologik vaziyat aholining boshqa guruhlari orasida birinchi bo'lib javob beradi (Menlikulov P. R. va hammual., 2008; Matkarimova D.S. va hammual., 2011; Taumuratova G. N., 2016). Ekologik noqulay sharoitlarda bola organizmining moslashuvchan qayta tuzilishining fiziologik mexanizmlari qonuniy ravishda elementar gomeostazning o'zgarishiga olib keladi. Yashash muhitining noqulay sharoitlari birinchi navbatda morfofunktsional yetilmaganligi tufayli turli ekologik omillarga yuqori sezgirligi bilan ajralib turadigan bolalar uchun xavf tug'diradi. Ularning organizmi atrof-muhit holatiga yuqori sezuvchanlikning o'ziga xos markeri hisoblanadi (Ashurova D.T. va hammual., 2012; Kuryazova, Sh.M. va hammual., 2014).

MDH mamlakatlarida oshqozon-ichak traktining yuqumli bo'lmagan patologiyasi pediatriyaning yetakchi muammolaridan biri ekanligi aniqlangan, bu bolalik davrida ushbu kasalliklarning sezilarli darajada tarqalishi bilan bog'liq bo'lib, turli mualliflarning ma'lumotlariga ko'ra, 1000 nafar bola aholisiga 80 dan 110 gacha, o'tkazilayotgan terapiya va reabilitatsiya tadbirlarining yetarli darajada samarali emasligi tufayli tez-tez qaytalanish, ovqat hazm qilish organlarida patologik jarayonning surunkali shaklga o'tish tendensiyasi bilan bog'liq (Belmer C.B., Gassilina T.V., 2019; G.Yu.Muxina, 2020). Kasallikni turli ko'rinishlariga qaramay, ingichka ichak kasalliklari aksariyat hollarda ichak so'rilishining buzilishi - malabsorbsiya sindromi bilan namoyon bo'ladi (Belmer C.B. va hammual., 2020). Turli sabablarga ko'ra malabsorbsiya klinik belgilarining o'xshashligi ma'lum differensial-dagnostik qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi va tashxisning kech qo'yilishiga olib keladi. Bundan tashqari seliakyaning klinik ko'rinishlari juda nospetsifik bo'lib, seliakiyaga xos bo'lgan ingichka ichak shilliq qavatidagi morfologik o'zgarishlar (intraepithelial limfositoz, giperregeneratorbatrofiya) boshqa bir qator kasalliklarda kuzatilishi mumkinligi qayd qilingan (Gorgun Yu.V., Portyanko A.S., 2017). Vaqtida tashxis qo'yilmaslik, adekvat davoning yo'qligi ingichka ichak so'rilishi buzilgan bolalarda moddalar almashuvi rivojlanishi va uning chuqirlashuviga olib keladi, bu esa shu guruhdagi bolalarni parvarishini

qiynlashtiradi va prognozni yomonlashtiradi (Muxina Y.G., 2018). Oqsil, elektrolitlar, mineral moddalar, vitaminlar va boshqalarning soʻrilishining buzilish va uning yoʻqotilishi distrofiya, anemiya, raxitga oʻxshash holat, poligipovitaminoz va bolalarning jismoniy rivojlanishining sezilarli kechikishiga olib keladi (Degtyareva I.I., 2019).

Mamlakatimizda bolalarda ingichka ichak kasalliklarining klinik-funksional xususiyatlarini oʻrganishga bagʻishlangan keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Soʻnggi yillarda tadqiqotchilarning eʼtibori enteropatiyalarning, shu jumladan seliakiya va boshqa maldigestiya va malabsorbsiya sindromlarining patogenetik mexanizmlari, strukturaviy buzilishlari va klinik koʻrinishlarini aniqlashga qaratilgan (Kamilova O.T., 2020; Umarnazarova Z.E., 2023). Oʻzbek populyatsiyasidagi bolalarda ingichka ichak shilliq qavatining gistologik va morfometrik xususiyatlarini tahlil qilishga alohida hissa qoʻshgan, bu kasallikning ogʻirligi va davomiyligi bilan bogʻliq boʻlgan bir qator morfofunksional belgilarni aniqlashga imkon bergan (Abdujabbarova Z.M. va hammual., 2025). Aliyeva N.R. (2024) ishlarida ham muhim maʼlumotlar olingan boʻlib, ularda vorsinkalar atrofiyasi darajasi, kriptalardagi oʻzgarishlar, yalligʻlanish infiltratsiyasi darajasi va shilliq qavatning shikastlanish chuqurligini aks ettiruvchi morfometrik koʻrsatkichlarning oʻzgarishi batafsil koʻrib chiqilgan. Ushbu tadqiqotlar Oʻzbekistonda yashovchi bolalarda ingichka ichak kasalliklarining klinik kechishi va tuzilish xususiyatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi, tashxislash va davolash-tashxislash algoritmlarini takomillashtirish uchun ilmiy asos yaratadi. Shunga qaramay, Orolboʻyi mintaqasida ekologik noqulaylik sharoitida bolalarda uchraydigan ingichka ichak kasalliklarining oʻziga xos xususiyatlarini aniqlash va tashxislashga bagʻishlangan ishlar yetarli emas.

Shunday qilib, Ozbekistonda olib borilgan tadqiqotlar Orolboʻyi mintaqasida bolalarda ingichka ichak kasalliklarining klinik-funksional, laborator va immunologik koʻrsatkichlarini oʻrganish, ular asosida kechish ogʻirligining prognostik mezonlarini ishlab chiqish muammosining dolzarbligi dissertatsiya tadqiqotining mavzusiga asos boʻldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent pediatriya tibbiyot institutining "Diagnostika, davolash va profilaktikaning zamonaviy usullarini ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq (2022-2025 yy.) bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Orolboʻyi mintaqasida yashovchi bolalarda ingichka ichak kasalliklarining klinik-funksional xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari.

Orolboʻyi mintaqasida yashovchi ingichka ichak kasalliklariga chalingan bolalar salomatligi holatini baholash;

Orolboʻyi mintaqasida yashovchi ingichka ichak kasalliklariga chalingan bolalarning ichak mikrobiotasi tarkibini aniqlash;

Orolbo'yi sharoitida ingichka ichak kasalliklari bo'lgan bolalarda klinik va biokimyoviy ko'rsatkichlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

ingichka ichak kasalliklari bo'lgan bolalarda yallig'lanishga xos va yallig'lanishga qarshi sitokinlar (IL-1 β va IL-4) darajasini, shuningdek immunoglobulinlar (IgE va IgA) miqdorini aniqlash;

Orolbo'yi mintaqasida yashovchi bolalarda ingichka ichak kasalliklari kechishi og'irligining prognostik mezonlarini belgilash.

Tadqiqotning obykti ingichka ichak kasalliklari (IHK) bilan og'rikan 185 nafar bolalarni klinik, laborator va instrumental tekshirish va davolashning istiqbolli qiyosiy tahlili o'tkazildi, ulardan 125 nafari Orolbo'yi mintaqasida yashovchi ingichka ichak kasalliklari belgilari bo'lgan bemorlar va 60 nafari Toshkent shahrida yashovchi xuddi shunday patologiyali bolalardir, 25 nafar amaliy sog'lom bolalar nazorat guruhi uchun olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida periferik qon, qon zardobi va najas olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda umumklinik, funksional-instrumental, laborator, immunologik va statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Orolbo'yi mintaqasida yashovchi bolalarda tana vaznining pastligi (-2 SO - (-) 3 SO va undan past), bo'yning pastligi, shuningdek, tana vazni indeksining pastligi (-2 SO - (-) 3 SO va undan past) bilan tavsiflangan jismoniy rivojlanishi va ingichka ichak kasalliklari kechishining o'ziga xos xususiyatlari isbotlangan bo'lib, bu ko'rsatkichlar Toshkent shahrida yashovchi bolalarga nisbatan past ekanligi aniqlangan;

ingichka ichak kasalliklari bilan kassallangan Orolbo'yi mintaqasida yashovchi bolalar uchun anemiya va yallig'lanish jarayoniga mos xolda AIAt va AsAt hamda, bog'langan bilirubinning sezilarli darajada oshishi bilan tavsiflanuvchi jigar funksiyasining buzilishi aniqlangan bo'lib, barcha ko'rsatkichlar Toshkent shahridagi bolalarga qaraganda kuchliroq namoyon bo'lgan;

ekologik noqulay bo'lgan Orolbo'yi mintaqasida yashovchi bolalarda IL-4 ning pasayishi ($7,85 \pm 2,4$ pg/ml; $p < 0,05$) fonida IgE ($239,6 \pm 5,9$ mg%, $p < 0,01$), IgA ($376,7 \pm 8,6$ mg%, $p < 0,01$) va IL-1 β ($52,15 \pm 3,2$ pg/ml, $p < 0,01$) darajasining oshishi bilan kechuvchi immun tizim disfunktsiyasi rivojlanishi va bu disbalansning ustun ekanligi isbotlangan;

stafilokokklar konsentratsiyada 10^3 KHQB/gr dan ortiq ko'payishi bilan tavsiflanuvchi maldigestiya va malabsorbsiya bilan namoyon bo'ladigan kasalliklarga chalingan bolalarda ichak mikrobiotasi tarkibining o'ziga xos xususiyatlari isbotlangan, bu ko'rsatkichlar Orolbo'yi mintaqasida yashovchi bolalarda 1,9 baravar yuqori bo'lgan hamda ekologik noqulay sharoitida yashovchi bolalarda kasalliklarning og'ir kechishiga va yondosh kasalliklarni rivojlanishiga olib kelgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

bolalarda ingichka ichak kasalliklarining og'irlik darajasini baholash shkalasi klinik va laboratoriya mezonlarini, shuningdek, o'rganilgan bolalarning

ichak mikrobiotasi ma'lumotlarini o'z ichiga olgan holda ishlab chiqilgan va joriy etilgan bo'lib, ularning har biri simptomlarning og'irligi yoki me'yordan og'ishlariga qarab 0 dan 3 ballgacha baholanishi asoslangan;

Orolbo'yi mintaqasida yashovchi bolalarda ingichka ichak kasalliklarining klinik funksional xususiyatlari" nomli kompyuter ilovasi ishlab chiqilgan (Guvohnoma No DGU 43910 14.11.2024 y.), bu Orolbo'yi sharoitida bolalarda malabsorbsiya bilan namoyon bo'ladigan ingichka ichak kasalliklarining og'irligini tashxislash va bashorat qilishi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya ishida qo'llanilgan zamonaviy, bir-birini to'ldiruvchi klinik, biokimyoviy, immunologik va statistik usullar, shuningdek, tekshirilgan bemorlar sonining yetarliligi, ingichka ichak kasalliklarida diagnostik va prognostik mezonlarning takomillashtirilganligi, statistik tahlil usullari to'plamining asoslanganligi, shuningdek, ularning to'g'ri qo'llanilganligi, olingan natijalarning xorijiy va mahalliy tadqiqotlar bilan taqqoslanganligi, xulosa, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Orolbo'yi mintaqasida yashovchi bolalarda ingichka ichak kasalliklarining klinik-funksional xususiyatlarini tavsiflash bo'yicha olingan ilmiy natijalar pediatriya sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirishga salmoqli hissa qo'shishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalar Orolbo'yi mintaqasi bolalarida ingichka ichak kasalliklari kechishining og'irligini prognozlashda samarali natijalarga erishish imkonini beradi, bu esa davolash sifatini oshiradi, ekologik noqulay mintaqa sharoitidagi bolalarining nogironligini kamaytirishga va hayot sifatini yaxshilanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy etish. Orolbo'yi mintaqasida yashovchi bolalarda ingichka ichak kasalliklarining klinik-funksional xususiyatlarini aks ettiruvchi olingan ilmiy natijalar asosida asoratlar rivojlanishining prognostik mezonlari ishlab chiqilgan:

birinchi ilmiy yangilik: orolbo'yi mintaqasida yashovchi bolalarda tana vaznining pastligi (-2 SO - (-) 3 SO va undan past), bo'yning pastligi, shuningdek, tana vazni indeksining pastligi (-2 SO - (-) 3 SO va undan past) bilan tavsiflangan jismoniy rivojlanishi va ingichka ichak kasalliklari kechishining o'ziga xos xususiyatlari isbotlangan bo'lib, bu ko'rsatkichlar Toshkent shahrida yashovchi bolalarga nisbatan past ekanligi aniqlanganligi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Muvofiqlashtiruvchi ekspert Kengashi tomonidan 07.02.2025-yilda 03/186-son raqami bilan tasdiqlangan "Bolalarda Orolbo'yi sharoitida maldigestiya va malabsorbsiya bilan namoyon bo'ladigan kasalliklarning og'irlik darajasini prognozlash usuli" nomli uslubiy tavsiyanomasida aks ettirilgan va Xorazm viloyati bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining 2025-yil 02-iyuldagi 25-1-son buyrug'i va Toshkent shahar Bolalar Milliy Tibbiyot Markazining 2025-yil 01-iyuldagi 50-son buyrug'i bilan amaliyotga joriy etilgan (Sog'liqni saqlash vazirligi Ilmiy-texnik kengashining 07.10.2025 yildagi 26/10-son xulosasi). Ilmiy yangilikning

ijtimoiy samaradorligi: Orolbo'yi mintaqasida yashovchi bolalarda jismoniy rivojlanishning o'ziga xos ko'rsatkichlarini klinika amaliyotga joriy etish mutaxassislariga bolalarda ingichka ichak kasalliklarini erta aniqlash, ularning jismoniy rivojlanishini baholashda aniq diagnostik mezonlardan foydalanish, shuningdek, ekologik noqulay mintaqada yashovchi bolalarga samarali profilaktik va davolash choralarini tayinlash imkonini beradi. Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi: Orolbo'yi mintaqasida yashovchi bolalarda jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini erta baholash mezonlarini klinika amaliyotga joriy etish orqali antropometrik ko'rsatkichlarni o'z vaqtida aniqlash va qo'shimcha instrumental tekshiruvlarga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish hisobiga bitta tekshiruv uchun sarflanadigan 156 000 so'm, 185 nafar bemorda esa jami 28 860 000 so'm xarajatlarni tejashga erishilgan. Xulosa: Orolbo'yi mintaqasida yashovchi bolalarda jismoniy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha taklif etilgan mezonlari bir nafar bemor hisobiga byudjet mablag'laridan 142 000 so'm va byudjetdan tashqari mablag'lardan 185 000 so'm tejash imkonini bergan;

ikkinchi ilmiy yangilik: ingichka ichak kasalliklari bilan kassallangan Orolbo'yi mintaqasida yashovchi bolalar uchun anemiya va yallig'lanish jarayoniga mos xolda AIAt va AsAt hamda, bog'langan bilirubinning sezilarli darajada oshishi bilan tavsiflanuvchi jigar funksiyasining buzilishi aniqlangan bo'lib, barcha ko'rsatkichlar Toshkent shahridagi bolalarga qaraganda kuchliroq namoyon bo'lganligi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Muvofiqlashtiruvchi ekspert Kengashi tomonidan 07.02.2025-yilda 03/186-son raqami bilan tasdiqlangan "Bolalarda Orolbo'yi sharoitida maldigestiya va malabsorbsiya bilan namoyon bo'ladigan kasalliklarning og'irlik darajasini prognozlash usuli" nomli uslubiy tavsiyanomasida aks ettirilgan va Xorazm viloyati bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining 2025-yil 02-iyuldagi 25-1-son buyrug'i va Toshkent shahar Bolalar Milliy Tibbiyot Markazining 2025-yil 01-iyuldagi 50-son buyrug'i bilan amaliyotga joriy etilgan (Sog'liqni saqlash vazirligi Ilmiy-texnik kengashining 07.10.2025 yildagi 26/10-son xulosasi). Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi: Orolbo'yi mintaqasi bolalarida aniqlangan gematologik va biokimyoviy ko'rsatkichlarning buzilishi ekologik jihatdan noqulay hududlarda yashovchi bolalarning salomatligini yaxshilashga qaratilgan kompleks tibbiy, ijtimoiy va profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi: Aniqlangan biokimyoviy markerlarni klinik amaliyotga joriy etish orqali takroriy invaziv tekshiruvlarga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish hisobiga bitta tekshiruv uchun sarflanadigan 210 000 so'm, 185 nafar bemorda esa jami 38 850 000 so'm xarajatlarni tejashga erishilgan. Xulosa: Orolbo'yi mintaqasida yashovchi bolalarda ingichka ichak kasalliklaridagi biokimyoviy o'zgarishlar bo'yicha taklif etilgan mezonlari bir nafar bemor hisobiga byudjet mablag'laridan 163 000 so'm va byudjetdan tashqari mablag'lardan 210 000 so'm tejash imkonini bergan;

uchinchi ilmiy yangilik: ekologik noqulay bo'lgan Orolbo'yi mintaqasida yashovchi bolalarda IL-4 ning pasayishi ($7,85 \pm 2,4$ pg/ml; $p < 0,05$) fonida IgE

(239,6±5,9 mg%, p<0,01), IgA (376,7±8,6 mg%, p<0,01) va IL-1β (52,15±3,2 pg/ml, p<0,01) darajasining oshishi bilan kechuvchi immun tizim disfunktsiyasi rivojlanishi va bu disbalansning ustun ekanligi isbotlanganligi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Muvofiqlashtiruvchi ekspert Kengashi tomonidan 07.02.2025-yilda 03/186-son raqami bilan tasdiqlangan "Bolalarda Orolbo'yi sharoitida maldigestiya va malabsorbsiya bilan namoyon bo'ladigan kasalliklarning og'irlik darajasini prognozlash usuli" nomli uslubiy tavsiyanomasida aks ettirilgan va Xorazm viloyati bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining 2025-yil 02-iyuldagi 25-1-son buyrug'i va Toshkent shahar Bolalar Milliy Tibbiyot Markazining 2025-yil 01-iyuldagi 50-son buyrug'i bilan amaliyotga joriy etilgan (Sog'liqni saqlash vazirligi Ilmiy-texnik kengashining 07.10.2025 yildagi 26/10-son xulosasi). Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi: Orolbo'yi mintaqasida yashovchi bolalarda immun tizimining disfunktsiyasi ko'rsatkichlarini klinik amaliyotga joriy etish orqali pediatr va gastroenterologlarga immun disbalansni erta aniqlash, ekologik noqulay mintaqada yashovchi bolalarda immunologik tekshiruvlarni tizimli ravishda tashkil etish va immunologik davolash usullarini o'z vaqtida tayinlash imkonini beradi. Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi: Immunologik ko'rsatkichlarni baholashning aniqlangan mezonlarini klinik amaliyotga joriy etish orqali noto'g'ri tashxis qo'yilgan hollarda yuzaga keladigan samarasiz davolash xarajatlarini kamaytirish hisobiga bitta bemor uchun sarflanadigan 275 000 so'm, 185 nafar bemorda esa jami 50 875 000 so'm xarajatlarni tejashga erishilgan. Xulosa: Orolbo'yi mintaqasida yashovchi bolalarda immun tizimi disfunktsiyasining o'ziga xos ko'rsatkichlari bo'yicha taklif etilgan mezonlari bir nafar bemor hisobiga byudjet mablag'laridan 198 000 so'm va byudjetdan tashqari mablag'lardan 275 000 so'm tejash imkonini bergan;

to'rtinchi ilmiy yangilik: stafilokokklar konsentratsiyada 10^3 KHQB/gr dan ortiq ko'payishi bilan tavsiflanuvchi maldigestiya va malabsorbsiya bilan namoyon bo'ladigan kasalliklarga chalingan bolalarda ichak mikrobiotasi tarkibining o'ziga xos xususiyatlari isbotlangan, bu ko'rsatkichlar Orolbo'yi mintaqasida yashovchi bolalarda 1,9 baravar yuqori bo'lgan hamda ekologik noqulay sharoitida yashovchi bolalarda kasalliklarning og'ir kechishiga va yondosh kasalliklarni rivojlanishiga olib kelganligi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Muvofiqlashtiruvchi ekspert Kengashi tomonidan 07.02.2025-yilda 03/186-son raqami bilan tasdiqlangan "Bolalarda Orolbo'yi sharoitida maldigestiya va malabsorbsiya bilan namoyon bo'ladigan kasalliklarning og'irlik darajasini prognozlash usuli" nomli uslubiy tavsiyanomasida aks ettirilgan va Xorazm viloyati bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining 2025-yil 02-iyuldagi 25-1-son buyrug'i va Toshkent shahar Bolalar Milliy Tibbiyot Markazining 2025-yil 01-iyuldagi 50-son buyrug'i bilan amaliyotga joriy etilgan (Sog'liqni saqlash vazirligi Ilmiy-texnik kengashining 07.10.2025 yildagi 26/10-son xulosasi). Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi: Orolbo'yi mintaqasida yashovchi bolalarda ichak mikrobiotasining o'ziga xos xususiyatlarini klinik amaliyotga joriy etish pediatr va gastroenterologlarga disbioz holatini erta aniqlash, maldigestiya va malabsorbsiya sindromlarini to'g'ri baholash,

shuningdek, bolalarda yondosh kasalliklarning rivojlanishini oldini olish maqsadida maqsadli probiotik va antibakterial davolash taktikasini tayinlash imkonini beradi. Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi: Maldigestiya va malabsorbsiya sindromi bo'lgan bolalarda ichak mikrobiotasining (xususan, *Staphylococcus aureus* ning ortiqcha o'sishi) erta diagnostikasi va korreksiyasi natijasida kasallikning remissiya muddatlarini uzaytirdi va uzoq muddatli davolashga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish hisobiga bitta bemor uchun sarflanadigan 248 000 so'm, 185 nafar bemorda esa jami 45 880 000 so'm xarajatlarni tejashga erishilgan. Xulosa: Orolbo'yi mintaqasida yashovchi bolalarda ichak mikrobiotasining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha taklif etilgan mezonlari bir nafar bemor hisobiga byudjet mablag'laridan 179 000 so'm va byudjetdan tashqari mablag'lardan 248 000 so'm tejash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 1 tasi xalqaro va 3 tasi respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, bo'lib, ularning 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 128 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan. Ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari bilan bog'liqligi aks ettirilgan. Tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi ochib berilgan. Chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Ingichka ichak patologiyasining tarqalishi, patogenezi, klinikasi masalasining zamonaviy holati (adabiyotlar sharhi)**" deb nomlangan birinchi bobida Orolbo'yi mintaqasida bolalar salomatligi va rivojlanishi muammolariga bag'ishlangan adabiyot ma'lumotlari tahlil qilingan. Bolalarda malabsorbsiya sindromini tashxislash va farqlash masalalari ko'rib chiqilgan. Orolbo'yi bolalarida ingichka ichak patologiyasini tashxislash va klinik-funksional baholashning hal etilmagan masalalarini belgilash imkonini beruvchi o'z tadqiqotini o'tkazish uchun ilmiy-nazariy asos yaratilgan.

Dissertatsiyaning "**Klinik material va tekshirish usullarining umumiy tavsifi**" deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot materiallari va usullari batafsil tavsiflangan.

Ingichka ichak kasalliklari (IIK) bo'lgan 185 nafar bolalarni klinik, laborator va instrumental tekshirish va davolashning prospektiv qiyosiy tahlili ma'lumotlari o'rganildi, ulardan 125 nafari Orolbo'yi sharoitida yashovchi

maldigestiya va malabsorbsiya belgilari bo'lgan bemorlar va 60 nafari Toshkent shahrida yashovchi bolalar edi. Gender tarkibiga ko'ra, tadqiqotda qatnashganlarning 104 nafari (56,2%) qiz bola va 81 nafari (43,8%) o'g'il bola bo'lgan. JSST bo'yicha bolalar yoshi gradatsiyasiga ko'ra yosh tarkibi bo'yicha taqsimlanganda 51 (27,2%) nafarini 6 oylikdan 1 yoshgacha bo'lgan bolalar, 75 (40,5%) nafarini 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar, 59 (31,9%) nafarini 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil etdi. Bundan tashqari, qo'yilgan maqsad va vazifalarni hal qilish uchun tekshirilgan 125 nafar bola nozologiyasiga qarab 4 kichik guruhga bo'lingan: 3-5 yoshdagi seliakiya bilan kasallangan 47 nafar bola, 2-5 yoshdagi surunkali enterokolit bilan kasallangan 46 nafar bola, 6 oylikdan 4 yoshgacha bo'lgan allergik enterokolit bilan kasallangan 32 nafar bola.

JSST standartlari bo'yicha o'sish egri chiziqlaridan foydalangan holda bolalarning o'sishi va rivojlanishini baholangan, egri chiziqlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2007-yil 30-martdagi 145-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan. Allergik enterokolit anamnez yig'ish, immunoglobulin E ni aniqlash, antigen bog'lovchi limfotsitlarni aniqlash asosida aniqlangan.

Mikrobiotsenozni o'rganish tadqiqot guruhlarining barcha bemorlarida kasalxonaga murojaat qilish vaqtida amalga oshirildi. Mikrofloraning patogenligini aniqlash uchun bakteriologik ekish amalga oshirildi. Axlat yig'ish Gracheva N.M. va hammualliflarning tavsiyalariga ko'ra amalga oshirildi.

Ultratovush tekshiruvi "Simens" (Germaniya) firmasining real vaqt masshtabida ishlaydigan "Sonoline Prima LC" apparatida standart usul bo'yicha 3,5 MGs va 7,5 MGs sektorli va chiziqli datchiklardan foydalangan holda amalga oshirildi.

Ko'krak qafasi va qorin sohasi rentgenografiyasi tekshiruvi Raymed, Shveysariya va Clearscope-1000, TOSHIBA, Yaponiyada ishlab chiqarilgan Listem Digital X-ray South Korea va RAYMAT rentgen apparatlarida o'tkazildi. Xuddi shu maqsadda "ImageJ," "Hi scene" dasturiy majmuasida rentgenogrammalarga raqamli ishlov berildi.


Olingan barcha ma'lumotlar Microsoft Office Excel-2019 dasturiy paketi yordamida statistik ishlovdan o'tkazildi. O'rtacha qiymatlar o'rtasidagi farqlarning statistik ahamiyati Styudent (t) mezoni yordamida aniqlandi.

Dissertatsiyaning **"Orolbo'yi bolalarida ingichka ichak kasalliklari kechishining klinik-laborator xususiyatlari"** deb nomlangan uchinchi bobida Orolbo'yi hududida ingichka ichak kasalliklari bilan og'rikan bolalarning jismoniy va somatik holati, klinik-anamnestik tavsifi, laborator va instrumental tekshirish usullari ko'rsatkichlarining o'ziga xos xususiyatlari keltirilgan.

Antropometrik o'lchovlar tahlili va ingichka ichak kasalliklari shakllaridan qiyosiy jihatdan AG bolalarning o'rtacha rivojlanish darajasini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, seliakiya bilan og'rikan bolalarning 54,8% juda past tana vazniga ega (-3 SO dan past; 1- jadval). Surunkali enterokolit va allergik enterokolit bilan kasallangan bolalar guruhida bu ko'rsatkich yo'q edi. (-) 2 SO - (-) 3 SO chegarasida bo'lgan bolalar foizi seliakiyali bolalarda 29% ni va surunkali

enterokolitli bolalarda 34,8% ni tashkil etdi. Allergik enterokolit bilan og'riq bolalarda bu ko'rsatkich 12,5% ni tashkil etdi (1-jadval).

Oziqlanish og'ir darajadagi oqsil-energetik yetishmovchilik (OEYe) asosan seliakiya bilan og'riq bolalarda uchrab, 12,9% ni tashkil etdi. Ingichka ichak kasalliklarining qolgan guruhlarida bunday ko'rsatkichlar kuzatilmadi.



1-rasm. Ingichka ichak kasalliklarining shakliga qarab ularning tana vazni, bo'yi va TVI muvofiqligi bo'yicha tekshirilgan AG bolalarining foizi (n=125)

O'rtacha og'irlikdagi OEYe seliakiyali bolalarda mos ravishda 29%, SE 13,0% holatda kuzatildi. Shu bilan birga, ushbu ko'rsatkich allergik enterokolit bilan og'riq bolalarda umuman yo'q edi.

TVI medianasi allergik enterokolit bilan og'riq bolalar orasida eng yuqori bo'lib, 31,3% ni, seliakiya (9,7%) bilan og'riq bolalar orasida mos ravishda 2,5 va 3,3 martani tashkil etdi ($P < 0,05$).

Klinik tekshiruv tahlili shuni ko'rsatdiki, kasallikning yetakchi klinik ko'rinishlari ichak dispepsiyasi belgilari bo'lgan. Shunday qilib, AGda 69 (55,2%) bolada va TGda 35 (58,3%) bolada kuniga 3 martadan ko'p ich kelishi kuzatildi. Och ichak proyeksiyasida, kindik atrofi sohasi va sigmasimon ichak bo'ylab og'riq AGda 69 (55,2%) bolada va TGda 32 (53,3%) bolada kuzatildi. Hazm bo'lmagan qo'lansa hidli bo'tqasimon najas AGda 46 (36,8%) nafar va TGda 19 (31,7%) nafar bolada qayd etildi (1-jadval).

1-jadval
Bolalardagi ingichka ichakning surunkali kasalliklarida tekshirilgan klinik belgilari

Belgilari	AG (n=125)		SG (n=60)		P
	Abs	%	Abs	%	
Ichak dispepsiyasi (bir kunda 3)	69	55,2	35	58,3	>0,05

martadan ortiq ich kelishi)					
Och ichak, kindik atrofidagi soha va sigmasimon ichak bo'ylab og'riq	69	55,2	32	53,3	>0,05
Hazm bo'lmagan badbo'y bo'tqasimon ich ketishi	46	36,8	19	31,7	>0,05
Qorin dam bo'lishi	97	77,6	47	78,3	>0,05
Shilliq (+++)	45	36*	17	28,3	>0,05
Qusish	32	25,6	12	20	>0,05
Qusish chastotasi:					
bir kunda 3 dan 4 martagacha	23	18,4	9	15	>0,05
bir kunda 5 dan 6 martagacha	9	7,2	3	5	-

Qorin dam bo'lishi AG da 97 (77,6%) nafar bolada qayd etilgan bo'lsa, TG da bu belgi 78,3% bolada kuzatildi. Shilimshiq (+++) AG da 45 (36%) va TG da 17 (28,3%) bolada kuzatildi. Qusish AG da 32 (25,6%) holatda va TG da 12 (20,0%) holatda kuzatildi.

Kasallikning shakliga qarab klinik tekshiruv tahlili shuni ko'rsatdiki, kasallikning barcha shakllarida bolalarda turli darajada ifodalangan metabolik buzilishlarning turli xil klinik ko'rinishlari kuzatiladi. Ingichka ichak proyeksiyasida va kindik atrofi sohasida og'riq S bo'lgan bolalarning 58,1% da kuzatildi, bu SE (41,3%), AE (71,8%) bo'lgan bolalarga qaraganda biroz yuqori. Shunday qilib, S bilan og'riq bolalarda tez-tez ich kelishi, qorin dam bo'lishi va hazm bo'lmagan qo'lansa hidli ich kelishi ko'proq kuzatildi, bu esa kasallikning boshqa shakllariga nisbatan ichak dispepsiyasining yaqqol namoyon bo'lishidan dalolat beradi, AE da esa najasda shilliq to'planishi ko'proq kuzatildi. Bundan tashqari, AG va TG da umumiy somatik holatni tahlil qilganda, klinik ko'rinishda suyak buzilishlari mavjud bo'lib, ular AG dagi bolalarda ko'proq namoyon bo'lgan va kalsiy almashinuvining buzilishi bilan chambarchas bog'liq. AG bemorlarida suyak og'rig'i SG bolalariga nisbatan 1,2 baravar ko'proq uchradi. AG bolalarida tish kariyesi 60% dan ortiq hollarda, tish deformatsiyalari esa 80% dan ortiq hollarda qayd etilgan, TG da bu ko'rsatkichlar mos ravishda 38 va 53% ni tashkil etgan.

Bolalarni obyektiv tekshirishda ovqatlanishning buzilishi asosan terining quruqligi, teri elastikligi va turgorining pasayishi, sochlarning ingichkalashishi, to'kilishi va xiralashishi kabi trofik buzilishlar bilan namoyon bo'ldi. Sochlarning xiralashishi AG li bemorlarda TG li bemorlarga nisbatan 2,1 marta ko'proq aniqlandi. AG bolalarida soch to'kilishi 53% dan ortiq hollarda, TGda 43% hollarda kuzatilgan. Mushaklar gipotoniyasi AGli bemorlarda TGli bolalarga nisbatan 1,8 marta ko'proq uchradi. Kuchli terlash barcha guruhlardagi deyarli barcha bolalarda aniqlandi.

Qusimcha patologiyaning uchrash darajasi tahlil qilinganda, anemiya deyarli barcha AGli bemorlarda qayd etilganligi, har to'rtinchi bemorda suyak deformatsiyasining turli ko'rinishlari qayd etilganligi aniqlandi. SE va AE bilan og'riq bolalarda AG anemiya 82% dan ortiq hollarda uchragan. Disaxaridaza yetishmovchiligi sindromi SE va AE bilan og'riq bolalarda SGda S bilan

og'riqan bolalarga nisbatan 1,8 baravar ko'proq aniqlandi.

SGda S bilan og'riqan bolalarda surunkali tonzillit 2,3 baravar ko'proq aniqlangan. S bilan og'riqan bemorlarning yarmida biliar sladjning mavjudligi xarakterli xususiyat bo'lib, bu, ehtimol, ingichka ichak shilliq qavatining chuqur atrofik o'zgarishlari tufayli o'n ikki barmoqli ichakda xoletsistinini ishlab chiqarilishining buzilishi bilan bog'liq.

AGli bolalarda gemoglobin darajasining $91,8 \pm 3,4$ g/l gacha va eritrotsitlarning $3,3 \pm 0,4 \times 10^{12}/l$ gacha pasayishi qayd etildi, bu anemiya belgilarini ko'rsatadi. Leykotsitoz ($11,2 \pm 1,2 \times 10^9/l$) va ECHTning $14,6 \pm 4,1$ mm/soatgacha oshishi yallig'lanish jarayoni mavjudligini ko'rsatdi (2-jadval).

Taqqoslash guruhida gemoglobin darajasi yuqori ($100,8 \pm 4,1$ g/l), eritrotsitlar soni ($3,5 \pm 0,2 \times 10^{12}/l$) va leykotsitlar ($8,6 \pm 1,4 \times 10^9/l$) va ECHT ($11,3 \pm 3,9$ mm/soat) ham yallig'lanishni ko'rsatdi, ammo asosiy guruhga nisbatan kamroq.

Qonning biokimyoviy tahlili shuni ko'rsatdiki, asosiy guruhdagi 35 nafar (28%) bolada umumiy oqsil darajasi referens qiymatlardan ($59,85 \pm 1,8$ g/l gacha) past bo'lgan, taqqoslash guruhidagi bolalarda esa umumiy oqsil darajasi yuqori ($66,85 \pm 1,5$ g/l), ammo baribir nazorat qiymatlaridan ($69,8 \pm 0,7$ g/l) past bo'lgan.

2-jadval

Tadqiqot guruhlarida ichak kasalliklari bo'lgan bolalarda umumiy va biokimyoviy qon tahlilining qiyosiy tahlili

Laborator ko'rsatkichlar		AG (n=125)	TG (n=60)	Nazorat (n=25)
Umumiy qon tahlili ko'rsatkichlari	Gemoglobin g/l ($M \pm \sigma$)	$91,8 \pm 3,4^*$	$100,8 \pm 4,1^* \wedge$	$124,2 \pm 4,4$
	Eritrotsitlar $10^{12}/l$ ($M \pm \sigma$)	$3,3 \pm 0,4^*$	$3,5 \pm 0,2^*$	$4,1 \pm 0,5$
	Leykotsitlar $10^9/l$ ($M \pm \sigma$)	$11,2 \pm 1,2^*$	$8,6 \pm 1,4^* \wedge$	$7,1 \pm 1,6$
	ECHT (mm/s) ($M \pm \sigma$)	$14,6 \pm 4,1^*$	$11,3 \pm 3,9^* \wedge$	$6,6 \pm 3,7$
Qonning biokimyoviy tahlili ko'rsatkichlari	Umumiy oqsil (g/l) ($M \pm \sigma$)	$59,85 \pm 1,8^*$	$66,85 \pm 1,5 \wedge$	$69,8 \pm 0,7$
	Albumin (g/l) ($M \pm \sigma$)	$39,2 \pm 2,4^*$	$40,3 \pm 3,1 \wedge$	$41,5 \pm 4,2$
	ALT	$34,5 \pm 5,2^*$	$28,2 \pm 4,8^* \wedge$	$22,7 \pm 5,7$
	AST	$28,2 \pm 4,1^*$	$26,6 \pm 4,3^* \wedge$	$19,8 \pm 4,9$
	Umumiy bilirubin ($\mu\text{mol}/l$) ($M \pm \sigma$)	$18,7 \pm 5,1^*$	$13,2 \pm 4,7^* \wedge$	$9,1 \pm 5,3$
	Bevosita bilirubin (mkmol/l) ($M \pm \sigma$)	$11,1 \pm 4,8^*$	$6,5 \pm 2,4^* \wedge$	$1,1 \pm 1,6$
	Bevosita bo'lmagan bilirubin (mkmol/l) ($M \pm \sigma$)	$7,6 \pm 5,2$	$6,7 \pm 4,9^* \wedge$	$8,2 \pm 4,5$
	Ishqoriy fosfataza (birl/l) ($M \pm \sigma$)	$551 \pm 55,4^*$	$426 \pm 48,7^* \wedge$	$189 \pm 31,2$
	Kalsiy (mmol/l) ($M \pm \sigma$)	$1,7 \pm 1,3^*$	$2,0 \pm 1,1 \wedge$	$2,6 \pm 0,9$
	Glyukoza (mmol/l) ($M \pm \sigma$)	$3,2 \pm 0,8^*$	$3,8 \pm 0,4$	$4,2 \pm 0,7$
	Kaliy (mmol/l) ($M \pm \sigma$)	$3,5 \pm 0,5^*$	$3,8 \pm 0,3$	$4,3 \pm 0,4$
	Natriy (mmol/l) ($M \pm \sigma$)	$129,7 \pm 3,2^*$	$132,8 \pm 4,9 \wedge$	$138,5 \pm 4,9$

Izoh: * - nazorat guruhi ko'rsatkichlariga nisbatan ma'lumotlarning ishonchligi ($P < 0,05$); - AG va TG ko'rsatkichlari o'rtasidagi ma'lumotlarning ishonchligi ($P < 0,05$)

Umumiy bilirubin darajasining oshishi asosiy guruh bolalarida aniqlandi ($18,7 \pm 5,1$ mkmol/l), bu jigar funksiyasining buzilishini ko'rsatishi mumkin, shu bilan birga bevosita bilirubin darajasi taqqoslash guruhidagi bolalarga ($6,5 \pm 2,4$

mkmol/l) qaraganda yuqori edi (11,1±4,8 mkmol/l). Asosiy guruhdagi bolalarda kalsiy darajasi ham pasaygan (1,7±1,3 mmol/l), bu kalsiy almashinuvining buzilishini ko'rsatishi mumkin.

Tekshirilgan bolalarda siydik sindromi siydik zichligi, oqsil darajasi, leykotsituriya, mikrogematuriya va kristalluriyaning o'zgarishi bilan ifodalangan (3-jadval).

3-jadval

Tekshirilgan guruhlarda ingichka ichak kasalliklari bo'lgan bolalarda siydik tahlilining qiyosiy tahlili

Laboratoriya ko'rsatkichlari		AG (n=125)	TG (n=60)	Nazorat (n=25)
Umumiy siydik tahlili ko'rsatkichlari	Siydik zichligi g/l	1,037±0,01	1,027±0,06	1,017±0,02
	Oqsil g/l	0,64±0,12*	0,21±0,15^	0,021±0,05
	Leykotsituriya	26 (20,8%)*	8 (13,3%)*^	1 (3,33%)
	Mikrogematuriya	23 (18,4%)*	6 (10,0%)*	1 (3,33%)
Kristalluriya:	fosfatli	11 (8,8%)*	3 (5,0%)	1 (3,33%)
	oksalatli	16 (12,8%)*	4 (6,7%)*^	1 (3,33%)
	uratli	10 (8,0%)	2 (3,3%)^	0 (0,0%)

Izoh: * - nazorat guruhi ko'rsatkichlariga nisbatan ma'lumotlarning ishonchliligi (P<0,05); - AG va TG ko'rsatkichlari o'rtasidagi ma'lumotlarning ishonchliligi (P<0,05)

Shunday qilib, ingichka ichak kasalliklari bilan og'riq bolalarda umumiy siydik tahlili ko'rsatkichlarida sezilarli o'zgarishlar kuzatiladi, bu esa yallig'lanish jarayonlari va metabolik buzilishlarning yaqqol namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Asosiy guruhda ultratovush tekshiruvidagi o'zgarishlar taqqoslash guruhiga nisbatan ishonchli darajada ko'proq aniqlandi. Bir qator asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ahamiyatga ega farqlar kuzatildi: ingichka ichak qovuzloqlarining kengayishi (53,3 foizga nisbatan 73,6 %; p<0,05), qorin bo'shlig'ida erkin suyuqlik mavjudligi (10,0 foizga nisbatan 32,8 %; p<0,01), steatoz bilan kechuvchi hepatomegaliya (20,0 foizga nisbatan 45,6 %; p<0,05). Shuningdek, surunkali va allergik enterokolitda jigar (18,3 foizga nisbatan 31,2 %; p<0,05) hamda me'da osti bezidagi (15,0 foizga nisbatan 28,0 %; p<0,05) reaktiv o'zgarishlar va limfa tugunlarining kattalashishi (21,7 foizga nisbatan 41,6 %; p<0,05) bo'yicha ham ishonchli farqlar qayd etildi. Bu esa asosiy guruhda me'da-ichak traktining yanada og'irroq va tizimli zararlanganini statistik jihatdan tasdiqlaydi.

SE va AE bilan og'riq bemorlarda UTT ko'rinishi o'xshash bo'lib, ko'pincha o't yo'llari diskineziyasi, pnevmatoz, kolit va enterokolit belgilari bilan ifodalangan. Shunday qilib, surunkali ichak kasalliklari bo'lgan bolalarda qorin bo'shlig'i a'zolarining ultratovush tekshiruvi kasallikning nozologik guruhiga qarab turli xil o'zgarishlarni aniqladi, shuning uchun qorin bo'shlig'i a'zolarining ultratovush tekshiruvi natijalariga ko'ra, seliakiya bilan og'riq bemorlarda qorin bo'shlig'i a'zolari patologiyasining eng tez-tez uchraydigan ultratovush belgilari deformatsiya va bukilish shaklidagi o't pufagidagi o'zgarishlar, shuningdek, "o't loyi" belgilari va o't pufagi toshlaridir.


Rentgenologik manzara Orolbo'yi bolalarida ichak o'zgarishlari Toshkent shahrida yashovchi bolalarga qaraganda yaqqolroq va keng tarqalganligini tasdiqlaydi. Shunday qilib, seliakiyada Kerkring burmalarining silliqiligi (54,4% ga nisbatan 26,7%, $p < 0,01$) va ichak devorining yupqalashishi (22,4% ga nisbatan 8,3%, $p < 0,05$) bo'yicha sezilarli farqlar aniqlandi, surunkali enterokolitda asosiy guruh bolalarida ko'pincha suyuqlik darajasi, bariyning sekin evakuatsiyasi va burmalarning notekisligi kuzatildi ($p < 0,05$), allergik enterokolitda esa bariy evakuatsiyasining kechikishi sezilarli darajada tez-tez qayd etildi (14,4% ga nisbatan 8,3%, $p < 0,05$), shilliq qavatning shishi va gaz bilan to'lishi tendensiya xususiyatiga ega edi ($p > 0,05$).

SE va AE bilan og'rikan bemorlarda UTT ko'rinishi o'xshash bo'lib, ko'pincha o't yo'llari diskineziyasi, pnevmatoz, kolit va enterokolit belgilari bilan ifodalangan. Rentgenologik manzara Orolbo'yi bolalarida ichak o'zgarishlari Toshkent shahrida yashovchi bolalarga qaraganda yaqqolroq va keng tarqalganligini tasdiqlaydi.

